

**BOSHLANGICH TA'LIMNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI: TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA
DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB
VAZIFALARI**

JDPU Pedagogika psixologiya va

inklyuziv ta'lim fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi

525.24-guruh talabasi

Xujakeldiyeva Dilshoda Toshpo'lat qizi

Anotatsiya: Mazkur ishda boshlang'ich ta'lim tizimidagi zamonaviy tendensiyalar va ta'lim-tarbiya jarayonida didaktik vositalardan foydalanishning dolzarb masalalari yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali o'qitish jarayonini tashkil etishda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron darsliklar va ko'rgazmali qurollarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda didaktik vositalarning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi roli, ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va faolligini oshirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'unlashtirishning muhim jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Ishning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda boshlang'ich ta'limda o'qituvchining asosiy vazifasi – darsni faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchini fikrlashga, izlanishga va ijod qilishga undovchi jarayonga aylantirishdir. Buning uchun esa didaktik vositalardan samarali, maqsadga muvofiq foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim zamonaviy ta'lim tendensiyalari, ta'lim va tarbiya jarayoni, didaktik vositalar, o'quv jarayoni samaradorligi, innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT),

interaktiv metodlari ,o‘quvchilarning faolligi, ko‘rgazmali qurollar,elektron darsliklar, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim sifati, yaratijonlik va mustaqil fikrlash, o‘qituvchining innovatsion faoliyati ,ta’lim-tarbiya uyg‘unligi,dars samaradorligi, didaktik tamoyillar.

Hozirgi davrda ta’lim tizimi tubdan yangilanmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi — bu o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida eng muhim poydevor hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy ta’limda o‘qituvchidan nafaqat bilim berish, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faoliyatga qiziqish, va o‘zini namoyon etish ko‘nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonini takomillashtirishda didaktik vositalar — ya’ni ko‘rgazmali qurollar, texnik vositalar, elektron darsliklar, multimedia resurslari, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘rganilayotgan mavzuni oson tushunishga yordam beradi hamda bilimni mustahkamlaydi. Ta’lim muassasasini boshqarish mazmun-mohiyatiga ko‘ra ma’lum bir maqsadga erishishga yo‘naltirilgan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan vazifalarning bajarilishini, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun moddiy-texnik bazani yaratish va mustahkamlab borish, mazkur jarayonni yangi pedagogik va axborot texnologiyalari yukori malakali mutaxassislar bilan ta’minlashni nazarda tutadi. Boshqaruv faoliyatining mazmun-mohiyati boshqaruv strategiyalarni amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi va ular birgalikda boshqaruv jarayonida ta’sir ko‘rsatishning tartibi, ketma-ketligi, ularning tugallanish davrini aks ettiradi. Boshqaruv faoliyati - bu boshqaruv jarayonida qabul qilinayotgan qarorlarning yo‘nalishini ifodalovchi va ko‘zlangan

natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va birbirini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizimdir.

Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari:

Zamonaviy ta'lim jarayoni quyidagi asosiy yo'nalishlar asosida rivojlanmoqda:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim — har bir o'quvchining individual qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasini hisobga olish;

Kompetensiyaviy yondashuv — o'quvchiga tayyor bilim berish emas, balki uni amalda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish;

Innovatsion pedagogika — yangi metodlar, raqamli texnologiyalar va interaktiv uslublardan samarali foydalanish;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) — elektron darsliklar, interaktiv doskalar, videodarslar, onlayn platformalar orqali o'qitish. Bu tendensiyalar o'quv jarayonini zamonaviylashtirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ta'limni hayot bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Didaktika ([qadimgi yunoncha](#): διδακτικός, *didaktikos* — „o'rgatuvchi“, „ta'lim beruvchi“) — [pedagogikaning](#) tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. „Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. [Chex](#) pedagogi [Yan Amos Komenskiy](#) o'zining „Buyuk didaktika“ asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. [Nemis](#) pedagogi [Adolph Diesterweg](#) o'zining „[Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun yo'riqnoma](#)“ (1834—35) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so'ngi va 20-yillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta. Uzoq vaqt mobaynida ko'plab kommunistik davlatlarda [marksizm-leninizm](#) didaktikaning taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi metodologik asos deb qarab kelindi. Lekin mazkur ta'limotning ilmiy asoslari puch, jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'g'ri hamda xolis ko'rsatish imkoniyatidan mahrum bo'lgan tarafkash (tendensioz) qarash ekanligi ma'lum bo'lgach, unga tayanish mumkin bo'lmay qoldi. Keyingi vaqtda ko'plab musulmon davlatlarida [kalom](#) falsafasiga milliy didaktikaning metodologik asosi sifatida qaralmoqda. Chunki olamning yaralish, rivojlanish qonuniyatlari, insonning bilish imkoniyatlari, ma'rifatning shaxs kamolotidagi, o'zini anglash borasidagi o'rni singari jihatlar ana shu falsafiy asosga tayanilgandagina tushunarli tarzda izohlanishi mumkinligi anglab yetildi. Kalom falsafasi ta'lim olamni bilishning vositasi ekanligini, bilish jarayonining cheki yo'q, ammo inson bilishi mumkin bo'lgan bilimlar cheklanganligini ko'rsatishi bilan diqqatga sazovordir.

Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o'qitish metodikasi maktab amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning

o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi. Didaktika ta'lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O'qituvchi biror predmet bo'yicha o'quvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlash maqsadi sari intilar ekan, ma'lum ishlarning bajarilish namunasini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, u ta'limning barcha bosqichlarida uquvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o'zlashtirishlari, o'rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi. Didaktik vositalar — bu o'qitish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beruvchi o'quv qurollari va texnik vositalardir. Ular ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning diqqatini jamlash, mavzuni ko'rgazmali tarzda tushuntirishda katta rol o'ynaydi.

Boshlang'ich ta'limda didaktik vositalardan foydalanishning eng muhim vazifalari quyidagilardir:

1. Bilimni oson va tushunarli yetkazish — ko'rgazmali vositalar yordamida murakkab mavzularni bolalarga sodda shaklda tushuntirish.
2. O'quvchilarning qiziqishini oshirish — o'yinli, interaktiv uslublar orqali darsni jonlantirish.
3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish — vizual, eshitish va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirish.
4. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish — elektron testlar, taqdimotlar, video va animatsiyalar yordamida o'quv jarayonini boyitish.
5. Ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash — didaktik vositalar orqali o'quvchilarda axloqiy, estetik va ijtimoiy fazilatlarini tarbiyalash. Boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan didaktik vositalar quyidagi turlarga bo'linadi:

• **Ko'rgazmali vositalar:** plakat, jadval, rasmlar, modellar, kartochkalar, jismoniy namunalari.

• **Texnik vositalar:** kompyuter, proyektor, interaktiv doska, audio va video yozuvlar.

• **Kompyuter va planshetlar:** O'quvchilarga individual topshiriqlar berish, testlar yechish, rasmlar chizish, matematik masalalarni vizual yechish imkonini beradi. O'qituvchilar uchun elektron taqdimotlar tayyorlash, interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maxsus dasturlar (masalan, Paint, Wordwall, LearningApps, Quizizz) orqali o'quvchilarning faolligini oshiradi. **Proyektor va interaktiv doska:** Dars jarayonida slayd, video, animatsiyalar, rasmlar ko'rsatish imkonini beradi. O'quvchilar e'tiborini jalb qiladi, mavzuni jonli misollar orqali yoritadi. Interaktiv doska yordamida o'quvchi o'zi ishtirok etib, javob yozadi yoki shakllarni joylashtiradi — bu esa darsni “o'yinli o'qitish” usuliga yaqinlashtiradi.

Audio vositalar : Ona tili, ingliz tili, musiqa fanlarida talaffuz, nutq, ohang, qo'shiq va she'rlarni tinglash orqali o'rganish imkonini beradi. O'quvchilarning eshitish orqali idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Hikoya, ertak, qo'shiq, tabiiy tovushlar yozuvlari bolalarda diqqat va xotirani kuchaytiradi.

Video va animatsion materiallar: Murakkab jarayonlarni (tabiat hodisalari, texnik mexanizmlar, hayvonlar hayoti) ko'rsatishda samarali vosita. O'quvchilar ko'rgan narsasini tezroq eslab qoladi, chunki tasvirli axborot verbal (og'zaki) axborotdan 60% ko'proq esda qoladi. Masalan: “Suv aylanishi”, “O'simliklarning o'sishi”, “Bozor jarayoni” kabi mavzularni video orqali tushuntirish samarali. **Internet resurslari:** Elektron darsliklar, onlayn sinovlar, ta'limiy saytlardan foydalanish imkonini beradi. “Maktab.edu.uz”, “ZiyoNET”, “Google Classroom”, “Kundalik” kabi platformalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida aloqa vositasiga aylanmoqda. Internet yordamida o'quvchilar qo'shimcha materiallar topadi, dunyoqarashini kengaytiradi. **Multimedia dasturlari:** PowerPoint, Canva, Genially kabi vositalar orqali o'qituvchi vizual materiallar tayyorlaydi. Darslarni interaktiv testlar, animatsiyalar, diagrammalar bilan boyitadi. Har bir o'quvchi o'zini dars

jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi. Raqamli vositalar: elektron darsliklar, onlayn testlar, ta'limiy dasturlar.

O'yinli vositalar: o'quv o'yinlari, interaktiv mashqlar, didaktik stol o'yinlari.

Bu vositalar orqali o'qituvchi darsni faqat tushuntirish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarni faol ishtirok etuvchi, o'z fikrini erkin bildiruvchi, mustaqil qaror qabul qila oluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Boshlang'ich ta'limda didaktik vositalardan samarali foydalanish – zamonaviy ta'limning eng muhim tendensiyalaridan biridir. Chunki bu vositalar nafaqat bilim berish, balki o'quvchini fikrlashga, izlanishga, muloqotga va jamoada ishlashga o'rgatadi. Didaktik vositalardan to'g'ri va maqsadli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratini oshiradi, o'quvchilarning bilim sifati va o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Shu sababli, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsni tashkil etishda innovatsion yondashuv va didaktik vositalarni uyg'un qo'llashi zarurdir.

Foydalangan Adabiyotlar

- 1.Yo'ldoshev, Qozoqboy. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000.
- 2.Karimov I., Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, Toshkent, 1997.
- 3.O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar, Toshkent, 1996.
- 4.Hoshimov K., Nishonova S, Inomova M., Pedagogika tarixi, Toshkent, 1996.
- 5.O'zbekiston mutafakkirlari ta'limtarbiya qaqida, Toshkent, 1995.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. — T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti, 2020 yil.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — T.: Adolat nashriyoti, 2020. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". — T.: O'zbekiston, 1997.

8. Mavlonova R. A., To‘xliyeva R. X., Yo‘ldosheva S. E. Pedagogika. — T.: Fan va texnologiya, 2021. vcJumayev M., G‘afforova T. Didaktika asoslari. — T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2019.
9. Tursunov U., Sodiqova G. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — T.: Fan, 2020.
10. Yuldasheva M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. — T.: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
11. Hasanboyeva O., Abdullayeva Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021.
12. Davletshin M.G. Psixologiya va didaktika asoslari. — T.: O‘qituvchi, 2018.